

12-MAVZU: KASB TA'LIMI O'QITUVCHISI VA O'QUV USTASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR


Reja:

1. Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasining malaka tavsifnomasi.
2. Kasb-hunar ta'limi o'quvchisining funksional vazifalari
3. Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasining huquq va burchlari
4. Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar
5. O'quv rejalari va dasturlarning bajarishini hisobga olish, o'quvchilarning o'zlashtirishini, davomatini va xulq - atvorini hisobga olish, kasb-hunar ta'limi o'quv ustasining hisoboti

**Kasb ta'limi
o'qituvchisi
va o'quv
ustasining
malaka
tavsifnomasi**

Kasb-hunar ta'limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'p jihatdan kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustasining layoqaydlariga bog'liqdir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida kasbiy pedagogik ko'nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o'quvchilar kerakli ishlab chiqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo'ladilar. Shuning uchun kasb-hunar kollejlari kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustalari ishlab chiqarish jarayonining va o'z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etish lozim.

Mutaxassislik malakasi deb, kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustaning maxsus soha bo'yicha ko'nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularning malakalarining ikkinchi qismi "Kasbiy pedagogika" bilim sohasiga tegishli bo'lib, *pedagogik malakalarini* o'z ichiga oladi. Chunki o'quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta'lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog'langan. Bu esa ulardan psixologiya, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo'yicha ham malakalarga ega bo'lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda kasb ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustalarida shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo'lishi talab etiladi.



Kasb ta'limi oqituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, tugarak mashg'ulotlarni tashkil qilish;
- o'quvchilarni bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o'q bilan yakka tartibda ishlash;
- o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish.

Bilishi zarur:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlarni;
- o'qitadigan fanning o'quv reja, dastur va darsliklarning mazmunini;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta'lim va yoshlar to'g'risida xizmat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni;
- mustaqil O'zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;
- o'smirlarning yosh va maxsus psixologiyasini, pedagogikani, o'smirlar rivojlanishi-ning asosiy qonuniyatlarini;
- pedagogik, ilmiy-metodik va tashkiliy boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan hajmda umumnazariy fanlar asoslarini;
- pedagogik sikl fanlarini;
- yosh fiziologiyasi va o'quvchilar gigienasini;
- informatika va elektron hisoblash texnikasi asoslarini va hokazolarni.

O'zbekistonning kasb-hunar kollejlardagi
kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari va o'quv ustalari:

1. Yuksak axloqiy fazilatlarga, o'z kasbiga oid tegishli ma'lumot va kasbiy tayyorgarligiga ega bo'lgan kobiliyatli bo'lishi;

2. Milliy madaniyat va qadriyatlarini, dunyoviy bilimlarni yaxshi bilishi va diniy ilmlardan ham xabardor bo'lishi;

3. Yuqori metodik, psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi;

4. Erkin va ijobiy fikrlay oladigan talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i kerak.

Tarbiyalay olish mahorati

pedagogning yuksak madaniyat va ma'naviyat saviyasiga, shaxsiy axloqi, vatanparvarlik va burch (hislar)iga asoslanadi. Ta'lim oluvchilarda dunyo yaxlitligi yuksak madaniyat, ma'naviyat va dunyoviy tafakkurni shakllantirish uchun pedagogning o'zi gumanitar va gumanistik ruhida tarbiyalangan hamda o'quv-tarbiya ishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi shart.

Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi **shaxsiyat fazilatlariga** quyidagilar kiradi:

talabchanlik
va
adolatlilik

halollik
va
xayrixohlik

kirishimlilik
va hazil-
mutoyiba
hissi

O'qituvchining mehnati va mahorati.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakter bilan bog'liq. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, shirin so'zlik kabi hislatlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsa, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'lsagina tez obro' hurmatga ega bo'ladi.

O'qituvchining faoliyati va kasbiy imidji.

O'qituvchining pedagogik faoliyati har bir boshqa faoliyat kabi o'zining aniq uslubiga ega bo'ladi. Faoliyat uslubi to'la ma'noda usullar, holatlar, shakllarning turg'un tizimidan iborat bo'lib, u har xil sharoitlarda ham mavjud bo'ladi. U faoliyat tuzilishiga bog'liq bo'lib, uning-sub'ektning shaxsiy-psixolog xususiyatiga bog'liq, Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni quyidagicha ifodalash mumkin.

ob'ektga
(talabaga)
nisbatan
sezgirlik

kommunikativlik
- insonlarga yuz
tutish,
xayrixohlik,
muomalalik;

kreativlik -
ijodiy ish
qobiliyati

Pedagogik
qobiliyatlarning
guruhlari

hissiy barqarorlik
- o'zini boshqara
olish;

iperseptiv
qobiliyatlar - kasbiy
yetuklik, empatiya,
pedagogik tuyg'u

E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT